




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI




2025- yil
yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)

67,0




Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi, % da

1 388,3



Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda

64,0




Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- fevral holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (1 fevral)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- fevral holatiga ko'ra)



Soni, birlikda



Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-dekabr)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(2025-yil yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2025-yil yanvar)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2021-2024- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2024- yil yanvar oyi hajmi va 2025- yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.


Tuman va shaharlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2025- yil yanvar)


Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Navoiy viloyati²⁾	1 506,3	110,1	100,0
Navoiy sh.	443,7	110,4	29,5
Zarafshon sh.	139,3	110,7	9,2
G'ozg'on sh.	3,5	111,0	0,2
Karmana t.	147,3	108,7	9,8
Konimex t.	26,6	109,3	1,8
Qiziltepa t.	97,0	108,1	6,4
Navbahor t.	63,0	107,2	4,2
Nurota t.	43,2	106,0	2,9
Tomdi t.	13,5	105,3	0,9
Uchquduq t.	35,9	107,8	2,4
Xatirchi t.	91,8	109,3	6,1

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2025 yil yanvar)



Tuman va shaharlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2025- yil yanvar)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2025-yil yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **58,3** foizni, shu jumladan, **28,1** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Tuman va shaharlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

(2025- yil yanvar)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xizmatlar – jami²⁾	20 055,6	112,1	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	634,9	117,9	3,2
Moliyaviy xizmatlar	3 407,9	118,1	17,0
Transport xizmatlari	2 635,9	118,2	13,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 405,5	117,9	12,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 527,3	110,4	27,6
Savdo xizmatlari	4 237,5	110,4	21,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	356,3	127,2	1,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	606,6	99,3	3,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	268,8	103,5	1,3
Ijara xizmatlari	179,2	100,6	0,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	291,5	106,7	1,5
Shaxsiy xizmatlar	434,2	108,8	2,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	746,2	104,2	3,7
Boshqa xizmatlar	729,3	106,1	3,6

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **97,7 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (2025-yil yanvar)



Tuman va shaharlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2025- yil yanvar)



2025- yilning yanvar-dekabr

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **78,4** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi (2025-yil yanvar)



Tuman va shaharlar kesimida savdo xizmatlari

(2025- yil yanvar)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlik transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **91,7** foiz.

Navoiy shahrida transport xizmatlari hajmi **479,9** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **130,1** foizni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi

(2025-yil yanvar)




Tuman va shaharlar kesimida transport xizmatlari

(2025- yil yanvar)



Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (2025-yil yanvar)

2025-yil yanvar oyiga nisbatan avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 405,5** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,0** foizni tashkil etdi.



Navoiy sh.	356,7	+17,9
Qiziltepa	345,9	+45,1
Karmana	366,0	+17,8
Zarafshon sh.	276,5	+16,2
Xatirchi	269,9	+12,0
Navbahor	174,4	+17,9
Nurota	138,9	+17,0
Uchquduq	93,4	+13,1
Konimex	75,3	+12,5
Tomdi	60,2	+15,2
G'ozg'on sh.	6,4	+14,9
		+24,6

Tuman va shaharlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

(2025-yil yanvar)




Avtotransport xizmatlari umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi **14,8** foizni yoki **356,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2024-yil yanvariga** nisbatan **145,1** foiz yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

 Hajmi, mlrd. so'mda  O'sishi

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(2025-yil yanvar)



Tumanlar va shaharlar kesimida moliyaviy xizmatlar


(2025- yil yanvar)

Navoiy sh.	2 123,3
Karmana	470,6
Zarafshon sh.	309,7
Qiziltepa	175,9
Xatirchi	112,3
Navbahor	73,4
Uchquduq	53,6
Nurota	42,9
Konimex	23,9
G'ozg'on sh.	13,0
Tomdi	9,2

Hajmi, mlrd. so'mda

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2025- yil yanvar)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2025- yil yanvar- 95,4** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi **62,3** foizni yoki **2 123,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yil yanvar oylariga nisbatan Nurota tumanida yuqori o'sish sur'ati **122,5** foizni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2025- yilning yanvar** oylari-da ularning ulushi **78,3** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (2025-yil yanvar)




Tuman va shaharlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2025- yil yanvar)



Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(2025-yil yanvar)




2025- yil yanvar- oylarida ta'lim sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 3,1 foizni tashkil etdi.




Tuman va shaharlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2025- yil yanvar)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2025-yil yanvar)

2025 - yil yanvar oylarida sog'liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 1,3 foizni tashkil etdi.



Tuman va shaharlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(2025-yil yanvar)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar ulushi **88,6** foizni tashkil etdi.

Tuman va shaharlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2025- yil yanvar)




■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-dekabr)



Tuman va shaharlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)




2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 79,6 mlrd. so'mga oshib, 179,2 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2024- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari- ning ulushi 72,6 foizni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (2025-yil yanvar)




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **51,9** foizini tashkil etadi.

Tuman va shaharlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2025- yil yanvar)


Yer nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish
Navoiy sh.	83,3	+6,7
Zarafshon sh.	22,3	+3,6
Karmana	21,5	+9,3
Qiziltepa	21,0	+12,9
Xatirchi	20,8	+1,7
Nurota	11,5	+5,8
Navbahor	11,0	+6,9
Uchquduq	6,7	+8,9
Konimex	5,4	+19,0
G'ozg'on sh.	1,8	+8,9
Tomdi	1,8	+6,0

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2025-yil yanvar)



Tuman va shaharlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar mlrd. so'mda)



2025- yilning yanvar oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **524,8** mlrd. so'mga oshib, **746,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **Zarafshon** shahrining ulushi **63,4** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalar operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.